

DAVLATNING IQTISODIYOTDA XUSUSIY TARMOQ VA TADBIRKORLIKNI QO‘LLAB-QUVVATLASH SIYOSATI

Saxatova Mukaddas Tashpo‘latovna

Xalqaro Innovatsion Universiteti “Iqtisodiyot va moliya” kafedrası assistenti

sakhatovamukaddas1976@mail.ru

Husinov Yoqub Abdusalomovich

Xalqaro Innovatsion Universiteti “Iqtisodiyot” ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

yhusinov@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14757132>

Annotatsiya. Mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti ko‘p jihatdan xususiy sektorning rivojlanishiga bog‘liq. Chunki xususiy tarmoq iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, yangi ish o‘rinlari yaratadi, innovatsiyalarni rivojlantiradi va aholi turmush darajasini oshiradi. Shu sababli, davlatning xususiy sektor va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash siyosati iqtisodiy strategiyaning muhim qismi hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Xususiy sektor, tadbirkorlik, kichik biznes, soliqlar, imtiyozlar, qo‘llab-quvvatlash, ish o‘rni, iqtisodiy o‘sish, ishsizlik darajasi, innovatsiya, samaradorlik.

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА ПОДДЕРЖКИ ЧАСТНОГО СЕКТОРА И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ЭКОНОМИКЕ

Аннотация. Экономическое развитие страны во многом зависит от развития частного сектора. Поскольку частная сеть является движущей силой экономики, она создает новые рабочие места, способствует инновациям и повышает уровень жизни населения. По этой причине государственная политика поддержки частного сектора и предпринимательства является важной частью экономической стратегии.

Ключевые слова: частный сектор, предпринимательство, малый бизнес, налоги, льготы, поддержка, рабочие места, экономический рост, уровень безработицы, инновации, эффективность.

STATE POLICY TO SUPPORT THE PRIVATE SECTOR AND ENTREPRENEURSHIP IN THE ECONOMY

Abstract. The economic development of the country largely depends on the development of the private sector. Since the private network is the driving force of the economy, it creates new jobs, promotes innovation and improves the standard of living of the population. For this reason,

the Government's policy of supporting the private sector and entrepreneurship is an important part of the economic strategy.

Keywords: *private sector, entrepreneurship, small business, taxes, benefits, support, employment, economic growth, unemployment rate, innovation, efficiency.*

Mamlakatimizda xususiy mulk egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini ta'minlashga qaratilgan mustahkam qonunchilik bazasi yaratilgan. Davlat xizmatlari ko'rsatishning to'g'ridan-to'g'ri zamonaviy interaktiv shakllari joriy etilmoqda. Davlat organlari bilan ishbilarmonlar o'rtasida tizimli muloqot yo'lga qo'yilgan. Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi farovonligini yuksaltirishning muhim omili sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni izchil qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishonchli huquqiy kafolatlar tizimi yaratildi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida xususiy mulkchilik va tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli muhofaza qilish kafolatlarini kuchaytirish, o'z biznesini yo'lga qo'yish istagini bildirgan aholi vakillariga har tomonlama ko'mak berish bo'yicha dolzarb vazifalar belgilangan.

Mamlakatimizda xususiylashtirilgan korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy va ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini soliq, iqtisodiyot va statistika organlari bilan birgalikda muntazam tahlil qilib borish, faoliyat ko'rsatmayotgan, past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarni, bo'sh yotgan va samarasiz foydalanilayotgan ob'ektlar hamda yer uchastkalarini aniqlash ishlari tizimli yo'lga qo'yilgan.

Bu borada ilgari xususiylashtirilgan qariyb 40 ming ob'ekt o'rganilib, ularning 3 ming 900 tasi bo'sh turgani yoki to'liq ishlatilmayotgani aniqlangan. Ushbu ob'ektlarning 2700 tasi faoliyatini qayta tiklash yoki ular negizida yangi ishlab chiqarish quvvatlari tashkil etish bo'yicha loyihalar va "yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan.

Mazkur loyihalar doirasida 2,7 trillion so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilib, 25 mingdan ortiq ish o'rni yaratiladi. Bugungi kungacha 420 korxona faoliyati qayta tiklandi, yil yakunigacha yana 1800 ob'yektda ishlab chiqarish jarayoni yo'lga qo'yilishi rejalashtirilgan. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 18-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni bu borada muhim omil bo'lmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning asosiy omillaridan biri innovatsiyalardir. Innovatsion texnologiyalar yordamida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini chuqur qayta tuzish va ish unumdorligini yanada oshirish mumkin. Ma'lumki, bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi nafaqat milliy iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini jadallashtirishda, balki bugungi kun uchun dolzarb hisoblangan aholini ish bilan ta'minlash va turmush darajasini oshirish masalalarini hal etishda ham etakchi o'rin tutmokda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'zining iqtisodiyotimizdagi o'ta muhim va salmoqli hissasi, roli va ta'siri, sodda qilib aytganda, boshqa hech bir soha va yo'nalish o'rnini bosolmaydigan katta ahamiyati bilan davlat va jamiyatimiz rivojida alohida o'rin egallaydi".

Davlat tomonidan xususiy tarmoqni qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari sifatida huquqiy bazani mustahkamlash muhim masaladir. Davlat xususiy tadbirkorlik uchun qulay huquqiy muhitni yaratishi kerak. Soliq qonunchiligi, tadbirkorlik faoliyatini litsenziyalash va ruxsat berish jarayonlari soddalashtirilishi lozim. Shu bilan birga, xususiy mulk huquqi va investitsiyalarni himoya qilish kafolatlanishi muhimdir.

Xususiy tarmoq va tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash Davlat banklari orqali imtiyozli kreditlar ajratish, tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar taqdim etish va xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish orqali xususiy sektor rivojiga ko'maklashadi. Shuningdek, kichik va o'rta biznes uchun maxsus moliyalashtirish dasturlari joriy etilishi hisoblanadi.

Xususiy sektorning samarali ishlashi uchun zamonaviy infratuzilma mavjudligi katta ahamiyatga ega. Davlat yo'llar, elektr energiyasi, internet tarmog'i va logistika xizmatlarini yaxshilash orqali tadbirkorlar uchun qulay sharoit yaratib berishi shular jumlasidandir.

Tadbirkorlik faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun malakali kadrlar talab etiladi. Davlat tomonidan tadbirkorlar uchun maxsus o'quv dasturlari, seminarlar va treninglar tashkil etilishi muhim. Shuningdek, iqtisodiyot ehtiyojlariga mos ravishda kadrlar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Xususiy sektorning rivoji iqtisodiyotda bir qator ijobiy o'zgarishlarga olib keladi. Masalan, ish o'rinlari yaratadi, xususiy korxonalar yangi ish joylarini ta'minlaydi, bu esa ishsizlik darajasini kamaytiradi. Xususiy biznes faoliyati davlat byudjetiga tushadigan soliqlar hajmini oshiradi. Mahalliy va xalqaro bozorlar bilan integratsiya qilish vazifalari bajaradi. Tadbirkorlar mahalliy mahsulotlarni eksport qilish orqali xalqaro bozorlarni zabt etadi. Raqobatbardoshlikni oshirish

imkoniyatlarini beradi. Xususiy sektor innovatsiyalar va samaradorlik orqali iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi.

Xulosa

Davlatning xususiy tarmoq va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosati mamlakat iqtisodiyoti rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu siyosat orqali yangi imkoniyatlar yaratiladi, iqtisodiyotning turli sohalarida o'sish ta'minlanadi va xalq farovonligi oshadi. Shunday ekan, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash va bu yo'nalishda izchil siyosat olib borish zamonaviy taraqqiyotning ajralmas qismidir.

REFERENCES

1. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkaasining qarori 27.12.1996 yildagi 460-son.
2. Choriyev X.Sh., Amirov L., Toshkent davlat iqtisodiyot Universiteti O'zbekiston Respublikasida xususiy sektorni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari "Экономика и социум" №6(85) ч.1 2021 www.iupr.ru
3. Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G'afurov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik.-T.: "Fan va texnologiya", 2005. (Lotin alifbosida)
4. Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G'afurov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. (to'ldirilgan va qayta ishlangan nashri). -T.: "Fan va texnologiya", 2009.
5. A.O'lmasov, A.V. Vahobov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (to'ldirilgan va qayta ishlangan nashri). – T.: "Iqtisod-moliya", 2014. – 424 bet.
6. B.Y.Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik.–T.: "Barkamol fayz media", 2017.
7. Z.T.Gaibnazarova, SH.A.Isamuxametov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik.–T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot –matbaa uyi", 2020.
8. UzA milliy axborot agentligi
9. Bozarov, D. (2023). BO'LAJAK IQTISODCHI TALABALARNING IQTISODIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING MATEMATIK TAHLILI. Академические исследования в современной науке, 2(27), 84-90.
10. Bozarov, D. (2023). Methods of developing economic competence on the basis of interdisciplinary relationship. Modern Science and Research, 2(12), 131-137.
11. Bozarov, D. (2022). CHIZIQLI VA KVADRATIK MODELLASHTIRISH MAVZUSINI MUSTAQIL O'RGANISHGA DOIR MISOLLAR. Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук, 2(6), 24-28.
12. Bozarov, D. (2022). PROBLEMS OF SYSTEMS OF LINEAR ALGEBRAIC EQUATIONS. Science and Innovation, 1(2), 163-171.
13. Maxmudovna, G. M., Olimovich, T. E., & Uralovich, B. D. (2021). Types and uses of mathematical expressions. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 746-749.